
“HAR BIR BOLAGA MEHR E’TIBOR” SHIORI OSTIDA BAYRAM TADBIRI O’TKAZILDI

Toshloq tumani hokimligi, tuman “Mahalla” xayriya jamoat fondi qoshidagi “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi hamda tuman “Nogironlar” jamiyati tomonidan 1 iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan tumandagi 130 nafar imkoniyati cheklangan, kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandalari uchun bayram tadbiri o‘tkazildi.

Sana munosabati bilan tumandagi “Ufq” to‘yxonasiga bolajonlar hamda ularning ota-onalari va yaqinlari taklif etilib, to‘kin dasturxon yozildi.

Tadbirda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev bolajonlarni bayram bilan tabrikladi. Murg‘ak qalb egalariga bayram sovg‘alarini ulashdi. Bu bolalarga bir olam quvonch va shodlik ulashdi.

Bayram kechasida san‘atkorlar tomonidan ijro etilgan sho‘x kuy-qo‘shiqlar, bolajonlarni o‘yin kulgulari bayram tadbiriga yanada fayz bag‘ishladi.

2023-06-01 12:28:59